FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 37.013:008:005

Ergasheva Saida Avazovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MADANIYAT MUASSASALARINI BOSHQARISHDA TA’LIM LOYIHALARINI QO‘LLASHNING DIDAKTIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniyat muassasalarini boshqarish jarayonida ta’lim loyihalaridan foydalanishning didaktik-pedagogik asoslari, ularning ta’limiy, tarbiyaviy va tashkiliy imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Madaniyat muassasalarining ijtimoiy institut sifatidagi vazifalari, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda targ‘ib etishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda didaktik tizimning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, ta’lim maqsadi, mazmuni, pedagog faoliyati, ta’lim oluvchilar, pedagogik jarayon va tashkiliy shakllarning o‘zaro aloqadorligi ochib berilgan. Madaniy-ma’rifiy loyihalarni tashkil etish orqali talabalarning ijtimoiy faolligi, ijodiy tafakkuri, boshqaruv kompetensiyasi va qadriyatlar tizimini rivojlantirish imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqot natijalari madaniyat muassasalarini boshqarishda loyiha yondashuvini qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, innovatsion boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish va madaniy-ma’rifiy faoliyatni takomillashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: madaniyat muassasalari, ta’lim loyihalari, didaktik-pedagogik asoslar, madaniyat menejmenti, loyiha yondashuvi, qadriyatlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tajriba, pedagogik jarayon, boshqaruv kompetensiyasi, innovatsion ta’lim, madaniy-ma’rifiy faoliyat.

ДИДАКТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ В УПРАВЛЕНИИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье рассматриваются дидактико-педагогические основы использования образовательных проектов в процессе управления учреждениями культуры, а также их образовательные, воспитательные и организационные возможности. Раскрываются функции учреждений культуры как социальных институтов, их роль в формировании и популяризации национальных и общечеловеческих ценностей. Особое внимание уделяется взаимосвязи основных компонентов дидактической системы при разработке и реализации образовательных проектов, включая цели и содержание обучения, деятельность педагога, обучающихся, педагогический процесс и организационные формы обучения. Обосновываются возможности развития социальной активности, творческого мышления, управленческих компетенций и ценностных ориентаций студентов посредством реализации культурно-просветительских проектов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что применение проектного подхода в управлении учреждениями культуры

способствует повышению эффективности образовательного процесса, формированию инновационных управленческих навыков и совершенствованию культурно-просветительской деятельности.

Ключевые слова: учреждения культуры, образовательные проекты, дидактико-педагогические основы, культурный менеджмент, проектный подход, ценности, социализация, социальный опыт, педагогический процесс, управленческая компетентность, инновационное образование, культурно-просветительская деятельность.

DIDACTIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF APPLYING EDUCATIONAL PROJECTS IN THE MANAGEMENT OF CULTURAL INSTITUTIONS

Abstract. This article examines the didactic and pedagogical foundations of applying educational projects in the management of cultural institutions, focusing on their educational, developmental, and organizational potential. It explores the functions of cultural institutions as social institutions and their role in promoting national and universal values. Particular attention is given to the interrelationship between the main components of the didactic system, including educational objectives, content, teachers' activities, learners, pedagogical processes, and organizational forms of education. The article substantiates the potential of cultural and educational projects to develop students' social engagement, creative thinking, managerial competencies, and value orientations. The findings indicate that applying a project-based approach to the management of cultural institutions contributes to improving the effectiveness of educational processes, developing innovative management skills, and enhancing cultural and educational activities.

Keywords: cultural institutions, educational projects, didactic and pedagogical foundations, cultural management, project-based approach, values, socialization, social experience, pedagogical process, managerial competence, innovative education, cultural and educational activities.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda madaniyat muassasalari faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, boshqaruv tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy qilish hamda aholining madaniy-ma’rifiy salohiyatini yuksaltirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, madaniyat markazlari, muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, san’at saroylari va boshqa madaniyat tashkilotlari faoliyatida ta’lim loyihalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mazkur loyihalar madaniyat muassasalarining an’anaviy faoliyatini kengaytirish, ularning ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish hamda jamiyatning turli qatlamlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi, birinchi navbatda, madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, boshqaruv jarayoniga zamonaviy menejment tamoyillarini tatbiq etish, aholining, xususan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy, intellektual va estetik tarbiyasini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Madaniyat muassasalari bugungi kunda nafaqat ma’naviy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib etish, balki ijtimoiy

muloqotni rivojlantirish, ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-ma’rifiy makon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarda ham madaniy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va madaniyat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-sonli “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni madaniy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur huquqiy asoslar madaniyat muassasalari faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish, ta’limiy va madaniy tashabbuslarni kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim loyihalari madaniyat muassasalarini boshqarishning muhim pedagogik vositasi sifatida qaralishi mumkin. Ular orqali turli yoshdagi aholining madaniy va ta’limiy ehtiyojlarini o‘rganish, milliy madaniy merosni targ‘ib etish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini baholash imkoniyati kengayadi.

Madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalaridan foydalanishning yana bir muhim jihati ta’lim va madaniyat integratsiyasini ta’minlash bilan bog‘liq. Bunda ta’lim loyihalari orqali nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiriladi, talabalar mustaqil izlanishga, muammolarni tahlil qilishga, jamoaviy qarorlar qabul qilishga va o‘z g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltiriladi. Natijada ularda kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tashkiliy, kommunikativ, ijodiy va boshqaruv kompetensiyalari shakllanadi.

Shunday ekan, madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalarini qo‘llashning didaktik-pedagogik asoslarini o‘rganish, loyiha faoliyatining mazmuni va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish hamda uning samaradorligini belgilovchi omillarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalaridan foydalanish masalasi pedagogika, menejment, madaniyatshunoslik va ijtimoiy psixologiya fanlarining o‘zaro kesishgan nuqtasida shakllanadigan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur muammoni o‘rganishda, avvalo, ta’lim menejmenti, shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimining shakllanishi va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalariga oid nazariy qarashlarga tayanish lozim.

M. Sharifxo‘jayev va Yo. Abdullayevning menejmentga oid ilmiy qarashlarida boshqaruv jarayonining tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, rahbarlik faoliyatining samaradorligi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari yoritilgan. Ushbu nazariy yondashuvlar madaniyat muassasalarini boshqarishda ham

rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish jarayonlarining ahamiyatini anglash imkonini beradi.

R.X. Jo‘rayev va S.T. Turg‘unovning ta’lim menejmentiga oid tadqiqotlarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, boshqaruvning pedagogik mexanizmlari va ta’lim muassasalarida tizimli yondashuvning ahamiyati asoslangan. Ushbu qarashlar ta’lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda pedagogik maqsad, mazmun, metod va tashkiliy shakllarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

D.I. Ro‘ziyevaning tadqiqotlarida talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari o‘rganilgan. Mazkur yondashuv madaniy-ma’rifiy loyihalarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishda muhimdir. Chunki madaniyat muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim loyihalari orqali milliy meros, tarixiy xotira, madaniy an’analar va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish uchun zarur pedagogik sharoit yaratiladi.

N. Egamberdiyevaning madaniy-insonparvarlik yondashuviga asoslangan ilmiy izlanishlarida shaxsning ijtimoiylashuvi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishining pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Ushbu yondashuvga muvofiq, ta’lim jarayonida shaxsning individual imkoniyatlari, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlar tizimini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat madaniyat muassasalarida amalga oshiriladigan loyihalarning mazmunini ishlab chiqishda ham muhim metodologik mezon hisoblanadi.

A. Haydarovning madaniyat va san’at sohasini boshqarish, ijodiy faoliyatni rejalashtirish hamda boshqarishga oid ilmiy-uslubiy ishlari madaniyat tashkilotlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini anglashda muhim manba hisoblanadi. Muallifning yondashuvlarida madaniyat va san’at sohasida ijodiy tashabbuslarni tashkil etish, ularni maqsadli rejalashtirish va boshqaruv faoliyati bilan uyg‘unlashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Sh. Po‘latovning ta’lim menejmentiga oid qarashlari esa ta’lim jarayonini boshqarishda tizimlilik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillarining ahamiyatini ko‘rsatadi. N.A. Muslimovning kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishga oid tadqiqotlarida mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi, mustaqil faoliyati va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari asoslangan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalaridan foydalanish masalasi bir nechta nazariy yo‘nalishlarning integratsiyasini talab etadi. Bunda menejment nazariyasi boshqaruvning tashkiliy asoslarini, pedagogika ta’limiy maqsad va mazmunni, madaniyatshunoslik esa qadriyatlar va madaniy meros bilan bog‘liq jihatlarni belgilaydi. Shu bilan birga, madaniyat muassasalarini boshqarish amaliyotida mazkur yo‘nalishlarni yagona didaktik tizim asosida birlashtirish masalasi yanada chuqurroq ilmiy o‘rganishni talab etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va madaniy-insonparvarlik yondashuvlariga tayanildi. Mazkur yondashuvlar madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalarining mazmuni, maqsadi, tashkiliy tuzilishi va pedagogik imkoniyatlarini yaxlit holda o‘rganishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv asosida ta’lim loyihalarining tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq pedagogik tizim sifatida tahlil qilindi. Ushbu tizimning asosiy elementlari sifatida pedagog, ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilar, ta’lim mazmuni, pedagogik jarayon va ta’limning tashkiliy shakllari belgilandi. Mazkur elementlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim loyihalarining samarali tashkil etilishi va kutilgan natijalarga erishishida muhim omil sifatida qaraldi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarni madaniyat muassasalarining real faoliyati bilan tanishtirish, ularning boshqaruv jarayonlarini mustaqil o‘rganishi va amaliy loyihalarni ishlab chiqishi nazarda tutildi. Bunda “Madaniyat muassasalarini boshqarish” umumiy mavzusi doirasida turli madaniy-ma’rifiy loyihalarni ishlab chiqish, ularning maqsad va vazifalarini belgilash, amalga oshirish bosqichlarini rejalashtirish hamda natijalarni taqdim etishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida talabalarga “XXI asrda madaniyat muassasalarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari” mavzusi doirasida loyihalar ishlab chiqish topshirig‘i berilishi ko‘zda tutildi. Mazkur faoliyat orqali talabalar madaniyat tashkilotlarining boshqaruv xususiyatlarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash, ularning yechimiga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Loyiha faoliyatini tashkil etishda muammoli ta’lim, loyiha metodi, munozara, taqdimot, mustaqil izlanish, kuzatish va tahlil usullaridan foydalanish nazarda tutildi. Xususan, madaniyat muassasalariga tashrif buyurish, ularning faoliyatiga oid birlamchi ma’lumotlar bilan tanishish, madaniy tadbirlar tashkil etilishini kuzatish hamda mavjud boshqaruv tajribasini o‘rganish loyiha ishlarining amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil, ilmiy-pedagogik umumlashtirish, kuzatish, suhbat va so‘rovnoma usullaridan foydalanish metodologik jihatdan muhim hisoblanadi. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni baholashda ularning mavzuga muvofiqligi, maqsad va vazifalarning aniqligi, ijodiy yondashuvi, amaliy ahamiyati, tashkiliy jihatdan asoslanganligi va kutilayotgan natijalarning real imkoniyatlarga mosligi asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Shunday qilib, tanlangan metodologik yondashuvlar ta’lim loyihalarini nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi, balki bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantiruvchi amaliy pedagogik mexanizm sifatida o‘rganish imkonini beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, mazkur faoliyatning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va tashkiliy jihatlari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Birinchidan, ta’lim loyihalari talabalarda madaniyat muassasalari faoliyatiga nisbatan tizimli tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi. Loyiha jarayonida ular muassasaning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari, faoliyat yo‘nalishlari, auditoriya bilan ishlash usullari va madaniy xizmatlarni tashkil etish xususiyatlarini o‘rganadilar. Natijada boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari amaliy vaziyatlar bilan bog‘langan holda o‘zlashtiriladi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy loyihalar shaxsning qadriyatlar tizimini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Qadriyatlar ijtimoiy amaliyot, shaxsiy faoliyat, tarixiy-madaniy munosabatlar va insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadi. Shu sababli madaniyat muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim loyihalari orqali talabalar milliy madaniy meros, tarixiy xotira, milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlarni chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, ta’lim loyihalari talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Loyiha mavzusini tanlash, muammoni aniqlash, ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, yechimlarni ishlab chiqish va yakuniy natijani himoya qilish jarayonlari mustaqil faoliyatni talab etadi. Bu esa ularda tashabbuskorlik, mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, tadqiqot davomida ta’lim loyihalarining didaktik samaradorligi ularning asosiy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bilan belgilanishi asoslandi. Xususan, ta’lim maqsadining aniq belgilanishi loyiha mazmunini tanlashga, mazmunning to‘g‘ri shakllantirilishi esa pedagogik metodlar va tashkiliy shakllarni belgilashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan didaktik tizimning oltita asosiy elementi quyidagicha tavsiflanadi:

Pedagog faoliyati – loyiha jarayonini ilmiy-metodik jihatdan yo‘naltirish, maslahat berish va talabalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Ta’lim maqsadi – bo‘lajak mutaxassislarda madaniyat muassasalarini boshqarishga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish.

Ta’lim oluvchilar – loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etuvchi talabalar.

Ta’lim mazmuni – madaniyat menejmenti, pedagogika, madaniyatshunoslik va loyiha boshqaruviga oid nazariy hamda amaliy bilimlar majmui.

Pedagogik jarayon – loyihani rejalashtirish, izlanish, amaliy faoliyat, muhokama va natijalarni baholash bosqichlari.

Tashkiliy shakllar – individual, guruhiy va jamoaviy faoliyat, amaliy mashg‘ulotlar, madaniy muassasalarga tashriflar, taqdimot va loyiha himoyasi.

Beshinchidan, madaniyat muassasalariga tashkil etiladigan o‘quv-amaliy tashriflar loyihalarning hayotiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Talabalar muassasalarning real faoliyati bilan tanishish, boshqaruv jarayonlarini kuzatish, mutaxassislar bilan muloqot qilish va mavjud muammolarni aniqlash orqali nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. Bunday faoliyat ularda kasbiy muhitni anglash va boshqaruv vaziyatlariga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Oltinchidan, loyiha natijalarini taqdim etish va himoya qilish jarayoni talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, o‘z fikrini asoslash, jamoa oldida chiqish qilish va bahs-munozaralarda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihalar muhokamasi davomida turli nuqtayi nazarlarning taqqoslanishi talabalarning madaniy hodisalarga nisbatan munosabatini kengaytiradi va ularda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, ta’lim loyihalarining samaradorligini aniqlashda ularning yakuniy mahsuloti bilan bir qatorda, loyihani amalga oshirish davomida yuzaga keladigan individual va jamoaviy rivojlanish ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligi aniqlandi. Bunda talabalarning faolligi, mustaqil izlanishi, tashabbuskorligi, hamkorlikda ishlashi va o‘z faoliyatini baholash qobiliyati muhim mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalaridan foydalanish masalasi zamonaviy ta’limning amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlari bilan uzviy bog‘liq. Chunki bugungi kunda bo‘lajak mutaxassisdan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni muayyan kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy faoliyatni tashkil etish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish ham talab etiladi.

Ta’lim loyihalarining muhim xususiyati shundaki, ular ta’lim oluvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyektdan mustaqil izlanish va amaliy faoliyatni amalga oshiruvchi faol ishtirokchiga aylantiradi. Bunda pedagogning vazifasi faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi, balki loyiha jarayonini tashkil etish, talabalarni muammolarni mustaqil hal etishga yo‘naltirish, ularning ijodiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va natijalarni tahlil qilishdan iborat bo‘ladi.

Madaniyat muassasalari faoliyatining o‘ziga xosligi ta’lim loyihalarining mazmuniga ham alohida talablar qo‘yadi. Xususan, madaniy-ma’rifiy loyihalar jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, madaniy merosi va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Bunday yondashuv loyihalarning faqat ta’limiy natijalar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalarining bir nechta muhim funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Axborot-kognitiv funksiya talabalarni madaniyat, san’at va boshqaruvga oid bilim-

lar bilan qurollantiradi. Tarbiyaviy funksiya ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy xulq-atvorni rivojlantiradi. Rivojlantiruvchi funksiya mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Tashkiliy-kommunikativ funksiya esa jamoada ishlash, vazifalarni taqsimlash, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va natijalarni taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, loyiha yondashuvining samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Avvalo, loyihalarning mazmuni ta'lim maqsadlariga va madaniyat muassasalarining real faoliyat yo‘nalishlariga mos kelishi lozim. Ikkinchidan, talabalar mustaqil izlanish olib borishi uchun zarur axborot va metodik resurslar bilan ta'minlanishi kerak. Uchinchidan, madaniyat tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishi, amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalar uchun zarur tashkiliy sharoitlar yaratilishi muhimdir.

Yana bir muhim jihat loyihalar natijalarini baholash bilan bog‘liq. Ta'lim loyihasining samaradorligini faqat yakuniy taqdimot yoki tayyorlangan loyiha mahsuloti orqali aniqlash yetarli emas. Baholash jarayonida talabaning mustaqil izlanishi, muammoni tahlil qilish darajasi, ijodiy yondashuvi, jamoada ishlash qobiliyati, qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini refleksiv baholashi ham e'tiborga olinishi lozim.

Demak, madaniyat muassasalarini boshqarishda ta'lim loyihalaridan foydalanish ta'lim jarayonini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va madaniy-ma'rifiy faoliyatni yangi mazmun bilan boyitish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning natijadorligi esa didaktik tizim elementlarining o‘zaro muvofiqligi, loyiha mazmunining ijtimoiy ehtiyojlarga mosligi va amaliy hamkorlikning samarali tashkil etilishiga bog‘liq.

XULOSA

Madaniyat muassasalarini boshqarishda ta'lim loyihalaridan foydalanishning didaktik-pedagogik asoslarini o‘rganish natijasida mazkur yondashuv ta'lim va madaniyat integratsiyasini ta'minlovchi, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita ekanligi asoslandi. Ta'lim loyihalari orqali nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijodiy tafakkur va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta'lim loyihalarining samaradorligi, eng avvalo, didaktik tizimning asosiy tarkibiy qismlari – pedagog, ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilar, ta'lim mazmuni, pedagogik jarayon va tashkiliy shakllarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Ushbu elementlarning izchil tashkil etilishi loyiha faoliyatining maqsadga muvofiqligi, mazmunan boyligi va amaliy natijadorligini ta'minlaydi.

Madaniy-ma’rifiy loyihalarni amalga oshirish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi, kommunikativ qobiliyatlari va kasbiy mas’uliyati rivojlanadi. Shu bilan birga, madaniyat muassasalarining faoliyatini o‘rganish, ularning boshqaruv tajribasi bilan tanishish va mavjud muammolarga yechim taklif qilish bo‘lajak mutaxassislarning amaliy tayyorgarligini kuchaytiradi.

Olingan nazariy va metodologik xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Madaniyat muassasalarini boshqarishga oid o‘quv fanlari mazmuniga loyiha asosida ta’lim olish topshiriqlari va amaliy mashg‘ulotlarni kengroq kiritish.

Talabalarni muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, madaniyat markazlari va boshqa madaniyat tashkilotlarining real boshqaruv faoliyatiga jalb etish.

Madaniy merosni o‘rganish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va zamonaviy madaniy xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim loyihalarini ishlab chiqish.

Oliy ta’lim muassasalari va madaniyat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini kengaytirish hamda qo‘shma ta’limiy loyihalarni amalga oshirish.

Loyiha natijalarini baholashda talabalar bilimidan tashqari, ularning ijodiy faolligi, mustaqil qaror qabul qilishi, jamoaviy ishlashi va kasbiy kompetensiyalarini ham hisobga olish.

Ta’lim loyihalarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, elektron taqdimotlar, virtual ekskursiyalar va interaktiv ta’lim resurslaridan foydalanish.

Umuman olganda, madaniyat muassasalarini boshqarishda ta’lim loyihalarini qo‘llash nafaqat ta’lim jarayonining didaktik samaradorligini oshiradi, balki madaniy tashkilotlarning jamiyatdagi ma’rifiy va ijtimoiy vazifalarini yanada kengaytirishga ham xizmat qiladi. Shu bois loyiha yondashuvini madaniyat menejmenti bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimiga izchil tatbiq etish bugungi kunning muhim pedagogik va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva B.S., Ergasheva S.A. Madaniyat va san’at sohasi menejmenti. Darslik. – Toshkent: Grand Kondor Print, 2026. – 240 b.

2. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 297 b.

3. Ro‘ziyeva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – 274 b.

4. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2025. – 557 b.

5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2006. – 374 b.

6. Jo‘rayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.

7. Egamberdiyeva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida).

Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2010. – 332 b.

8. Haydarov A. Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Kamalak, 2019. – 198 b.

9. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press, 2021. – 478 b.

10. Haydarov A. Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Kamalak, 2019. – 192 b.

11. Alimasov V.A., Xodjayeva B.X. Ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotda tarixiy shaxslarning roli. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 120 b.

12. Bekmuradov M.B., Shodiyev X.X. Menejment nazariyasi va amaliyoti.

13. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2011.